

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta‘minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

2026-yil 1-may holatiga

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-sonli farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Har haftaning dushanba kunlari vazir huzurida hamda juma kunlari vazirning ijro intizomiga mas’ul o‘rinbosani huzurida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari va Hukumatning hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilmoqda.

2026-yil 8-aprel kuni vazirlikning Hay’at yig‘ilishida “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi muxokama qilinib, mas’ullarning shaxsiy mas’uliyati va javobgarligi oshirilgan.

2026-yilning aprel oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini 25-aprelga qadar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan I–II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 4 mart kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Joriy yilning aprel oyida vazirlik asosiy ijrochi bo‘lgan jami 82 ta Davlat rahbari topshiriqlaridan 80 tasi ya’ni 97,6 foizi bajarilgan, 2 tasi (2,4%)ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qaroriga muvofiq ijro muddatini uzaytirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan, Prezident Administratsiyasi rahbarining 39 ta topshiriqlaridan 38 tasi, ya’ni 97,4 foizi bajarilgan, 1 tasi bajarilmagan hamda Vazirlar Mahkamasining 60 ta topshiriqlaridan 59 tasi, ya’ni 98,3 foizi bajarilgan, 1 tasi bajarilmagan bo‘lib, nazoratdan olish choralari ko‘rilmoqda.

Shuningdek, 2026-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 47 ta, Administratsiya rahbarining 19 ta hamda Vazirlar Mahkamasining 65 ta topshirig‘i nazoratga olingan.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlari hamda har oy yakuni bilan hay’at yig‘ilishida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi